

## Arxeologik tadqiqotlar: So'fon mozor-qo'rg'onlari

Farg'ona vodiysi qadimgi chorvador va ziroatkor aholisi mozor qo'rg'onlari shu hudud dehqonchilik va chorvachilik tarixiga doir qiziqarli ma'lumotlar beradi. Ana shunday mozor qo'rg'onlari Farg'ona viloyatidagi So'fon hududida ochib o'rganildi. Dastlab So'fon mozor-qo'rg'onlari N.G.Gorbunova tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, 1956 - 1961-yillarda olima tomonidan bu yerda 24 ta qo'rg'on ochib o'rganilgan, 1982-85-yillar oralig'ida Farg'ona viloyat o'lkashunoslik muzeyi ilmiy xodimi, arxeolog G.P. Ivanov tomonidan mozor-qo'rg'onlarda tadqiqot ishlari davom ettirilib, yana 64 ta qo'rg'on ochilgan. Yodgorlikda jami 88 ta qo'rg'on tadqiq etilgan. Yangi tadqiq qilingan qo'rg'on shartli ravishda 89-qo'rg'on deb qayd etildi. Qabrning sharqiy tomoni mayitning chap tomon to's va oyoq suyagi yonidan qabr devoriga suyalgan, yonma-yon qilib qo'yilgan xurmacha va ko'za, ulardan shimolroqda qo'y suyagi hamda temir pichoq topildi. Shuningdek, qabr chuqurining shimoli-g'arbiy tomonida o'ng yelka suyagi yoniga bir dona kosa qo'yilgan.



Qabr qo'rg'on dafn marosimining ajralmas qismi bo'lib, qo'rg'on o'rtasidagi kul qoldig'i ko'mish ishlari yakunlangandan so'ng olov yoqilib marhumni so'nggi manzilga kuzatishdagi yakuniy bosqich bo'lgan;

birinchi qabr tasodifiy topilma bo'lib, ikkinchisiga hech qanday aloqasi yo'q. Manbalar tahlili esa uni so'nggi bronza yoki ilk temir davriga taalluqli bo'lishi mumkinligini ko'rsatmoqda;

ikkinchi qabr milodiy IV-V asrlarga taalluqli. U o'troq dehqonchilik bilan shug'ullangan aholiga tegishli bo'lgan. Farg'ona vodiysidagi qolgan tipdagi barcha qabrlar esa ko'chmanchi chorvador xalqlarga tegishli. Davr nuqtai-nazaridan olganda ham vodiydagi adirlar dastlabki davrda ko'chmanchi chorvadorlar tomonidan o'zlashtirilib, bu hududlardagi yaylovlardan foydalanib kelingan. Aholi nufuzining ortishi va dehqon jamoalari bilan yaqin munosabatlar ta'sirida adir hududlari ham ziroatchilik maqsadlarida o'zlashtirila boshlangan.



Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, So'fon hududi Farg'ona vodiysining ko'plab vohalari kabi milod boshlaridan keng ko'lamlı ijtimoiy munosabatlarga tortilgan va dehqon jamoalari bilan chorvador xalqlar bu yerda yonma-yon yashagan.